

O'QUV-BILISH JARAYONIDA TALABALARNING KASBIY TAYYORGARLIK MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Dilmurodova Sh.A

Qarshi xususiy Xalqaro Innovatsion Universiteti magistranti

O.P.Aslova

Qarshi xususiy Xalqaro Innovatsion Universiteti o'qituvchisi

Dilmurodova Sh.A

Master's Student at Karshi Private International Innovative University

O.P. Aslova

Lecturer at Karshi Private International Innovative University

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarni kasbiy tayyorgarlik motivatsiyasini rivojlantirish masalasi batafsil tahlil qilinadi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimidagi kasbiy tayyorgarlik jarayonlari, uning nazariy va amaliy asoslari ko'rib chiqiladi. Maqola kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va uni rivojlantirishda ta'lim jarayonining o'rni, talabalarni o'zini anglash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: talabalar, kasbiy tayyorgarlik, motivatsiya, oliy ta'lim, kasbiy rivojlanish, ta'lim jarayoni, psixologik-pedagogik omillar, ijodiy qobiliyatlar.

DEVELOPING STUDENTS' MOTIVATION FOR PROFESSIONAL TRAINING IN THE LEARNING PROCESS

Abstract: This article provides a detailed analysis of the issue of developing students' motivation for professional training. The processes of professional training within the modern higher education system, along with their theoretical and practical foundations, are examined. The article emphasizes the role of the educational process in shaping and developing professional training, as well as the importance of students' self-awareness and creative abilities.

Keywords: *students, professional training, motivation, higher education, professional development, educational process, psychological-pedagogical factors, creative abilities.*

Zamonaviy oliy ta'lim tizimining modernizatsiyasi talabalarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish bo'lib, mazkur muammoning kasbiy yechimi ijtimoiy va pedagogik qiymatga ega bo'lgan izlanishlarni talab etadi.

Ma'lumki, kasbiy tayyorgarlik- ma'lum bir faoliyat sohasidagi vazifani bajarishga samara beradigan maxsus bilim, ko'nikma va malakalar majmui. Ba'zi adabiyotlarda Kasbiy tayyorgarlik - bu ma'lum bir ishni, vazifalar guruhini bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rgatish jarayoni. Kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish esa - bu asosiy va tegishli kasb, mutaxassislik bo'yicha yangi va qo'shimcha bilimlarni egallash jarayoni.

Kasbiy tayyorgarlik o'z-o'zidan voqe bo'lmaydi albatta. Kasbiy tayyorgarlik negizida o'qish-o'rganish, jamoaviy-individual izlanish, tajribalarni o'zlashtirish, qushimcha o'zlashtirish, o'zini tarbiyalash orqali amalga oshib boradigan jarayon hisoblanadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning zamonaviy talablariga javob beradigan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash samarali tashkil etilgan ta'lim jarayonining barcha shakllarida yuqori natijalarga erishish, mehnat munosabatlarining barqarorligi va ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shartdir. Bu borada kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishda talabaning o'zini o'zi anglashi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi, ta'lim olish uchun konstitutsiyaviy inson huquqlarini ta'minlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarda kasbiy tayyorgarlik bo'lsagina kasbiy rivojlanish sari qadam tashlash yo'li ochiladi. Chunki kasbiy rivojlanish- bu kasbiy bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish jarayoni, uning muvaffaqiyatli yakunlanishi ma'lum kasb, mutaxassislik doirasida murakkabroq ishlarni bajarishga imkon beradi.

Talabalarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning huquqiy asoslari “Ta’lim to’g’risidagi qonun” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da va boshqa meyoriy xujjatlar bilan belgilanadi. Ularning qoidalari ijro etuvchi hokimiyatlarning meyoriy -huquqiy hujjatlari, birinchi navbatda respublika Hukumatining qarorlari bilan aniqlanadi. Ularga muvofiq, oliy ta’limning maqsadlari bo’lajak mutaxassislarni kasbiy va umumiy ta’lim darajasini izchil takomillashtirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Talabalarni kasbiy tayyorgarliklarini mutaxassislik fanlar, turli kasbiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan uchrashuvlar, davra suhbatlari, tadbirlar, mahorat darslari, tajribali pedagoglar faoliyatini o’rganish va boshqa ta’lim muassasalari bilan hamkorlik qilish asnosida ham rivojlantirish mumkin. Bunda asosiy kasbiy – metodik ma’lumotga ega bo’lmagan talabalarning amaliy tayyorgarlikdan o’tishi uchun sharoit yaratiladi. Shu sababli bizningcha, kasbiy tayyorgarlik - bu ma’lum bir faoliyat sohasida muayyan ishni, topshiriqlar guruhini bajarish uchun zarur bo’lgan amaliy bilim, ko’nikma, malakalarni tizimli egallash jarayoni.

Zamonaviy oliy ta’limning hozirgi rivojlanish bosqichi, davlat va nodavlat oliy o’quv yurtlarida talabalarni kasbiy tayyorlash jarayoni uning tashkil etilishiga, mazmuni va metodikasiga sifat jihatidan yangi talablar qo’yadi va uning samaradorligini oshirishning zamonaviy yondoshuvlarini taklif etadi. Oliy ta’lim sohasidagi konstruktiv va real harakat strategiyasi mamlakat va jahonning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy rivojlanishining uzoq muddatli istiqbollari hisobga olgan holda kasbiy ehtiyojlarini chuqur tahlil qilishga asoslangan bo’lishi kerak.

Talabalarni kasbiy tayyorgarligining tarixiy va pedagogik tahlil shuni ko’rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yangi tizimiga o’tish davri an’anaviy kasbiy shakllarning stereotiplaridan voz kechish jarayoni bilan kechadi. Psixologik -pedagogik hodisa sifatida talabalar tanlagan kasbning yangi qiyofasi oliy ta’lim tizimida mutaxassislarni kasbiy tayyorlash jarayoniga katta ta’sir ko’rsatadi. Oliy ta’limda talabalarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish

jarayonlari ta'limining tashkil etilishi, mazmuni va uslubiga munosabatini belgilaydi. Shu bilan birga, oliy ta'lim siyosatini takomillashtirish, bu borada davlatning mas'uliyati va faol rolini tiklash, universitetlarda o'quv jarayonini zamonaviy yondoshuvlar asosida tashkil etish uchun ilmiy –amaliy dasturlardan keng qamrovli foydalanish tizimini yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bu talabalarning kasbiy tayyorgarligini, uning asosliligini, shaxs, jamiyat va davlatning hozirgi va istiqboldagi ehtiyojlarini qondirish asosida yuqori sifatini ta'minlashdir. Taniqli psixolog L.S.Vigotskiy ta'kidlaganidek, “pedagog bu masalada ta'limda rivojlanish jarayoni bir yildan so'ng qanday tus oladi, yaqin rivojlanish bosqichida muammoni yechilish darajasi qanday ko'rinish oladi, rivojlanish jarayonining yakuni nima bilan tugaydi va nihoyat yetuk shaxs sifatida qanday xususiyatlarga ega bo'ladi?”- degan savollarga javob bera oladigan darajada bo'lishini uqtiradi. Shu bilan bir qatorda, bizning fikrimizcha talabalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonlarida kasbiy tayyorgarlikning muayyan qiyinchiliklari va hal qilinmagan muammolari ham ko'zga tashlanib turibdi. S. Sokovning mazkur muammolarni quyidagicha izohlaydi:

- davlat moddiy va ma'naviy yordamining yetarli emasligi;
- talabalarni kasbiy tayyorgarlik jarayonining ichki izolyatsiyasi va "o'zini o'zi ta'minlash";
- taklif etilayotgan ta'lim xizmatlarining zaif investitsion jozibadorligi;
- talabalarni kasbiy tayyorlashning ilmiy va amaliy asoslari yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- davlat ta'lim standartlari talablariga javob bermaydigan professor - o'qituvchilar tarkibini to'ldirish;
- har - xil turdagi mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'quv -moddiy bazaning yetarli emasligi,
- universitetlarning maktablar bilan hamkorligi samarali yo'lga qo'yilmaganligi va boshqalar.

Bu kabi hal qilinmagan bir qator muammolar talabalarni kasbiy tayyorgarlik jarayonining samaradorligini oshirish uchun pedagogik asoslarni yanada rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Hozirgi kunda talabalarni kasbiy tayyorlash muammolarini o'rganish oliy ta'lim pedagogikasi doirasida olib borilgan barcha pedagogik tadqiqotlarning qariyb to'rtidan bir qismini tashkil qiladi. Bu borada A.N. Veselov, S.Y. Ashurova, N.A. Muslimov, N.B. Istomina, F.A. Djumaboyeva, R.X. Jo'rayev, U.I. Inoyatov, Ishmatov Q, S.Y. Maxmudov, B.S. Nuridinov, Q.T. Olimov, D.N. Razzoqov, X.F. Rashidov, O'.Q. Tolipov, N.I. Ulendeyeva A.R. Xodjaboyev, R.Q. Choriyev, O.A. Abduqudusov, G.M. Anarkulova, P.R. Atutov, B.S. Gershunskiy, V.A. Zernov, E.A. Klimov, B.C. Lednev, M.I. Maxmutov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarini o'rganish talabalarning kasbiy tayyorgarligini shakllanishi va rivojlanishining asosiy pedagogik tendensiyalarini aniqlash uchun ishonchli nazariy va uslubiy asosni yaratishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Выготский Л. С. Этюды по истории поведения: Обезьяна. Прimitив. Ребенок / Л. С. Выготский, А. Р. Лурия. Москва: Педагогика-Пресс, 1993. 224 с.
2. Davletshin. M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi.- Toshkent: O'zbekiston, 1999.-30 b.
3. Соков С. В. Повышение эффективности профессиональной подготовки студентов вузов